

**DAVR XARAJATLARI TARKIBI VA ULARNING IQTISODIY TAVSIFI***Ortiqboyev Ismoiljon Tohirjon o'g'li**Andijon Davlat Texnika Instituti**Buxgalteriya hisobi va auditi yo'nalishi 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati hamda ularning tarkibi yoritilgan. Davr xarajatlarining asosiy turlari - sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, boshqa operatsion hamda moliyaviy xarajatlar tarkibi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, ularning moliyaviy natijalarni shakllantirishdagi o'rni ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** davr xarajatlari, sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, operatsion xarajatlar, moliyaviy xarajatlar, buxgalteriya hisobi.

**Kirish.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan xarajatlarni to'g'ri boshqarishga bog'liq. Xarajatlarning to'g'ri tasnifi va hisobini yuritish moliyaviy natijalarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, davr xarajatlari korxonaning umumiy xo'jalik faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq bo'lib, ular mahsulot tannarxiga kiritilmaydi va to'liq hisobot davrida moliyaviy natijalarga o'tkaziladi.

Davr xarajatlari hisobini yuritish va ularning tarkibini belgilash amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Ushbu jarayon O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan buxgalteriya hisobi milliy standartlari asosida amalga oshiriladi [2].

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligi xarajatlarni oqilona boshqarish va ularni to'g'ri hisobga olish darajasiga bevosita bog'liqdir. Xarajatlar korxonalar moliyaviy natijalarini shakllantiruvchi asosiy iqtisodiy kategoriyalardan biri bo'lib, ular tarkibida davr xarajatlari alohida o'rin egallaydi. Davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyatini chuqur o'rganish ularni to'g'ri tasniflash, hisobini yuritish hamda samarali boshqarish imkonini beradi.

Davr xarajatlari - bu ma'lum bir hisobot davrida yuzaga keladigan, biroq mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlardir. Ular korxonaning ishlab chiqarish jarayoniga bevosita bog'liq bo'lmaydi, balki umumxo'jalik, boshqaruv, sotish va moliyaviy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlardan iborat bo'ladi. Shu jihatdan davr xarajatlari ishlab chiqarish xarajatlaridan tubdan farq qiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot tannarxini shakllantiradi va realizatsiya qilinmaguncha tugallanmagan ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot tarkibida aks

ettiriladi. Davr xarajatlari esa yuzaga kelgan hisobot davridayoq to'liq moliyaviy natijalarga o'tkaziladi. Bu ularning asosiy iqtisodiy xususiyati hisoblanadi [3].

Korxonada faoliyatida yuzaga keladigan xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra turli guruhlariga ajratiladi. Davr xarajatlari esa mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiritilmaydigan, balki hisobot davrida to'liq moliyaviy natijalarga o'tkaziladigan xarajatlar majmuasini tashkil etadi. Ularning tarkibini to'g'ri aniqlash va tasniflash korxonada moliyaviy natijalarini haqqoniy shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaldagi buxgalteriya amaliyotiga muvofiq, davr xarajatlari bir necha asosiy guruhlardan iborat bo'ladi. Ushbu tasnif O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan buxgalteriya hisobi milliy standartlari talablari asosida shakllantirilgan [5].

### **1. Sotish xarajatlari.**

Sotish xarajatlari mahsulot, ish yoki xizmatlarni realizatsiya qilish jarayoni bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi. Ular ishlab chiqarish jarayoniga bevosita taalluqli bo'lmasa-da, mahsulotni iste'molchiga yetkazish va bozorni kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Sotish xarajatlari tarkibiga odatda quyidagilar kiradi:

- Reklama va marketing tadbirlari xarajatlari
- Mahsulotni qadoqlash va markirovkalash xarajatlari
- Transport va yetkazib berish xarajatlari
- Savdo xodimlari ish haqi va ularga ajratmalar
- Vositachilik va komissiya to'lovlari
- Savdo binolari ijarasi va saqlash xarajatlari

Mazkur xarajatlarning asosiy maqsadi mahsulot sotuvini rag'batlantirish va korxonada daromadlarini oshirishdan iboratdir. Shu sababli sotish xarajatlari ko'pincha marketing strategiyasi bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

### **2. Ma'muriy xarajatlari.**

Ma'muriy xarajatlari korxonaning boshqaruv apparatini saqlash va umumxo'jalik faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlardir. Bu turdagi xarajatlari korxonada faoliyatining tashkiliy asosini ta'minlaydi.

Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Rahbar va boshqaruv xodimlari ish haqi
- Ijtimoiy sug'urta ajratmalari
- Ofis binolari ijarasi va kommunal xizmatlar
- Kantselyariya va aloqa xarajatlari
- Xizmat safarlari xarajatlari
- Konsalting, auditorlik va yuridik xizmatlar uchun to'lovlar
- Axborot texnologiyalari va dasturiy ta'minot xarajatlari

Ma'muriy xarajatlar ishlab chiqarish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatmasada, korxonaning samarali boshqaruv tizimini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

### **3. Boshqa operatsion xarajatlar.**

Boshqa operatsion xarajatlar korxonaning asosiy faoliyati doirasida yuzaga keladigan, biroq ishlab chiqarish yoki sotish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan xarajatlardir.

Ular tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- Jarima va penya to'lovlari
- Sud xarajatlari
- Debitorlik qarzlarni hisobdan chiqarish
- Aktivlarning qiymati kamayishi (zararlar)
- Xayriya va homiylik xarajatlari
- Ijtimoiy obyektlarni saqlash xarajatlari

Mazkur xarajatlar ko'pincha kutilmagan yoki favqulodda holatlar natijasida yuzaga keladi. Ularning nazoratsiz o'sishi korxonaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

### **4. Moliyaviy xarajatlar.**

Moliyaviy xarajatlar korxonaning moliyaviy majburiyatlari va moliyaviy operatsiyalari bilan bog'liq xarajatlardir. Ular asosan qarz mablag'laridan foydalanish yoki moliyaviy aktivlar bilan bog'liq operatsiyalar natijasida yuzaga keladi.

Moliyaviy xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Bank kreditlari bo'yicha foiz to'lovlari
- Lizing to'lovlari bo'yicha foizlar
- Valyuta kursi farqidan zararlar
- Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha zararlar
- Diskont xarajatlari

Moliyaviy xarajatlarning yuqori darajasi korxonaning qarz yuklamasi ortganligini yoki moliyaviy risklarning mavjudligini ko'rsatadi. Shu sababli ularni tahlil qilish va boshqarish muhim ahamiyatga ega [4].

Davr xarajatlarning iqtisodiy mohiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, ular korxonaning faoliyat yuritish shart-sharoitini yaratadi. Masalan, boshqaruv apparatini saqlash, ofis binolarini ijaraga olish, marketing tadbirlarini amalga oshirish kabi xarajatlar bevosita mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmasa-da, korxonaning uzluksiz faoliyatini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, davr xarajatlari korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ular hisobot davrida daromadlardan chegiriladi va sof foyda

miqdorini kamaytiradi. Shu sababli davr xarajatlarini boshqarish korxonaning rentabelligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Uchinchidan, davr xarajatlari korxonaning bozor strategiyasini aks ettiradi. Masalan, reklama va marketing xarajatlarining yuqori ulushi korxonaning faol marketing siyosatini yuritayotganidan dalolat beradi. Boshqaruv xarajatlarining o'sishi esa tashkiliy tuzilmaning kengayganligini ko'rsatishi mumkin [7].

**1-jadval.****Davr xarajatlari guruhi va ularning tavsiflari.**

|  | <b>Da<br/>vr<br/>xarajatla<br/>ri guruhi</b> | <b>Tarkibiy<br/>elementlar</b>   | <b>Iqtisod<br/>iy tavsifi</b>  | <b>Moliyavi<br/>y natijaga<br/>ta'siri</b>                    |
|--|--|--|--|---|
|  | Sotish xarajatlari                           | Reklama, marketing, qadoqlash, transport, savdo xodimlari ish haqi, komissiya to'lovlari                       | Mahsulotni realizatsiya qilish va bozorni kengaytirishga xizmat qiladi | Sotuv hajmini oshiradi, lekin oshishi sof foydani kamaytiradi |
|  | Ma'muriy xarajatlar                          | Boshqaruv xodimlari ish haqi, ofis ijarasi, kommunal xizmatlar, xizmat safarlari, IT va konsalting xarajatlari | Korxonaning umumxo'jalik va boshqaruv faoliyatini ta'minlaydi          | Bevosita daromad keltirmaydi, foydadan chegiriladi            |
|  | Boshqa operatsion xarajatlar                 | Jarima va penya, sud xarajatlari, debitor qarzlarning hisobdan chiqarilishi, xayriya                           | Asosiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan qo'shimcha xarajatlar      | Kutilmagan xarajatlar sifatida foydani kamaytiradi            |
|  | Moliyaviy xarajatlar                         | Kredit foizlari, valyuta kursi farqi, lizing   | Moliyaviy majburiyatlar  | Qarzdorlik oshsa, sof   |

|  |  |  |                                |                          |
|--|--|--|--------------------------------|--------------------------|
|  |  | foizlari, qimmatli qog'ozlar bo'yicha zararlar | va operatsiyalar bilan bog'liq | foyda sezilarli kamayadi |
|--|--|--|--------------------------------|--------------------------|

Davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati ularning vaqt omili bilan chambarchas bog'liqligida ham namoyon bo'ladi. Ular ma'lum bir hisobot davriga tegishli bo'lib, kelgusi davrlar uchun aktiv sifatida e'tirof etilmaydi (agar ular oldindan to'langan xarajatlar bo'lmasa). Bu esa buxgalteriya hisobida "hisobot davri tamoyili" asosida aks ettiriladi.

Davr xarajatlarini to'g'ri aniqlash va hisobga olish amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan buxgalteriya hisobi milliy standartlarida davr xarajatlarini tan olish, baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish tartibi belgilab berilgan. Ushbu standartlarga muvofiq, davr xarajatlari foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda alohida modda sifatida ko'rsatiladi.

Shuningdek, davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati ularning boshqaruv hisobi nuqtayi nazaridan ahamiyatida ham ko'rinadi. Zamonaviy korxonalarda xarajatlarni markazlar bo'yicha hisobga olish, byudjetlashtirish va nazorat qilish tizimi joriy etilgan bo'lib, bunda davr xarajatlari alohida tahlil qilinadi. Bu esa ortiqcha va samarasiz xarajatlarni aniqlash, optimallashtirish choralarini ishlab chiqish imkonini beradi [6].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, davr xarajatlari korxonaning joriy faoliyatini uzluksiz va samarali yuritishda muhim o'rin tutadi. Ular bevosita ishlab chiqarish jarayoniga bog'liq bo'lmagan bo'lsa-da, mahsulotni bozorga chiqarish, boshqaruvni tashkil etish hamda umumxo'jalik faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali korxonaning umumiy natijadorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Davr xarajatlari tarkibiga kiruvchi sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar va boshqa operatsion xarajatlar har bir xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Mazkur xarajatlarning iqtisodiy tavsifi shuni ko'rsatadiki, ularni to'g'ri rejalashtirish, hisobga olish va tahlil qilish korxonada foydasini oshirishning muhim omillaridan biridir. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat kuchayib borayotgan bir paytda davr xarajatlarini optimallashtirish, ortiqcha sarf-xarajatlarni qisqartirish va resurslardan oqilona foydalanish korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, davr xarajatlarini kamaytirish faqat qisqartirish orqali emas, balki ularning samaradorligini oshirish orqali amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, davr xarajatlarining puxta iqtisodiy tahlili boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Ular yordamida korxonada faoliyatining zaif va kuchli tomonlari aniqlanadi, xarajatlar tarkibidagi o'zgarishlar baholanadi hamda kelgusidagi strategik yo'nalishlar

belgilanadi. Bu esa korxonaga nafaqat qisqa muddatli, balki uzoq muddatli istiqbolda ham barqaror rivojlanish imkonini beradi.

Umuman olganda, davr xarajatlari tarkibi va ularning iqtisodiy mohiyatini chuqur o'rganish, ularni samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish zamonaviy korxonalar uchun dolzarb vazifa hisoblanadi. Aynan shu orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z raqobatbardoshligini oshirishi, moliyaviy natijalarini yaxshilashi va iqtisodiy samaradorlikka erishishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. - 2023 yil (yangi tahrir).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mehnat munosabatlarini takomillashtirish va mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. - Toshkent, 2022
3. Abdullayev A.X. Korxonalar iqtisodiyoti. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Karimov A. Ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat resurslari boshqaruvi. - Toshkent: TDIU, 2022.
5. Rasulov N.M. Mehnat unumdorligini oshirish omillari va ularni baholash usullari. - Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim, 2018.
6. Shodmonov Sh.Sh., G'ulomov S.S. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
7. Xolmatov R.S. Mehnat resurslarini boshqarish. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2021.